

Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘limi

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining ilmiy faoliyatida “Hozirgi o‘zbek tili” bo‘limi alohida o‘rin tutadi. Mazkur bo‘lim o‘zbek tilshunosligining eng muhim nazariy va amaliy muamolarini hal qilishda faol qatnashib kelgan. Bo‘limga taniqli o‘zbek tilshunoslari A.G‘ulomov, F.Abdullayev, A.Hojiyev, E.Begmatovkabi olimlar rahbarlik qilganlar.“Hozirgi o‘zbek tili” bo‘limida Faxri Kamol, G‘.Abdurahmonov, A.Mahmudov, M.Sodiqova, A.Ahmedov, S.Muhamedov, J.Mamatov, O.Umarxo‘jayeva kabi olimlar faoliyat ko‘rsatganlar. Hozirgi vaqtida unda 2 nafar fan nomzodi xizmat qilmoqda.

Bo‘lim a’zolari: f.f.n., katta ilmiy xodim D. Xudoyberanova, f.f.n., kichik ilmiy xodim O‘. Islomov, kichik ilmiy xodimlar M. Farmonova, D.Andaniyazova.

Bo‘limda 1956-1959-yillarda S. Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” nomli kitoblar turkumi nashr qilindi. Olimning “O‘zbek tilining Andijon shevasi”, “Navoiy asarlari lug‘ati” (Porso Shamsiyev bilan hamkorlikda) asarlari tilshunosligmiz rivojida muhim rol o‘ynadi.

O‘tgan asrning 60-yillarida bo‘lim tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda o‘zbek tili morfologiyasiga oid ishlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Bo‘lim a’zosi, akademik A. Hojiyev tomonidan yaratilgan “O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar” (1963), “O‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar” (1966) kitoblarining nashr qilinishi morfologiya sohasida jiddiy yutuqlardan biri bo‘ldi. Bu asarlar tadqiq obyektiga o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqibyondashilganligi bilan diqqatga sazovordir.

O‘tgan asrning 70-yillarida bo‘lim a’zolari tomonidan amalga oshirilgan ishlar uch yo‘nalishda olib borildi: 1) lug‘atshunoslik; 2) nutq madaniyati; 3) o‘zbek tili grammatikasi.

1976-yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” o‘zbek lug‘atchiligiga muhim hissa sifatida qo‘shildi. Mazkur lug‘atni tuzishda bo‘lim a’zolaridan E. Begmatov va A. Ahmedovlar ishtirok etdilar. A.Hojiyev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (1979) o‘zbek tilshunosligida shu turdagи birinchi lug‘at bo‘lib, o‘zbek tilining ma’noviy-uslubiy jihatlarini namoyon etuvchi leksikografik tadqiqot hisoblanadi.

1966-yilda O‘zR FA Til va adabiyot institutida “Nutq madaniyati” bo‘limi “Hozirgi o‘zbek tili” bo‘limidan ajralib chiqib, ma’lum muddat alohida bo‘lim sifatida faoliyat yuritdi. Bo‘limga prof. S. Ibrohimov mudir etib tayinlanadi. Mazkur bo‘lim nutq madaniyati sohasining mohiyati va vazifalarini aniqlashda, uni

ilmiy jamoatchilik orasida targ‘ib qilishda katta rol o‘ynadi. Buning samarasi sifatida o‘zbek adabiy tili, uning meyor va uslublarini talqin va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan risolalar yuzaga keldi. E. Begmatovning “Nutq madaniyati va adabiy norma”(1973), “Notiqlik mahorati” (1979), “O‘zbek imlosi” (1979) shular jumlasidandir. Ushbu risolalar o‘zbek tilshunosligida nisbatan yangi soha bo‘lgan nutq madaniyati sohasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

Institutda 1975-1976-yillarda nashr qilingan “O‘zbek tili grammatikasi” nomli 2 jildli akademik nashr o‘zbek tilshunosligi rivojini ta’minlovchi fundamental asarlardan biri sifatida yuzaga keldi. Unda o‘zbek tilining morfologik va sintaktik sathlari birinchi marta keng qamrovda, batafsil va chuqr ilmiy asosda tahlil qilib berildi. Mazkur asar keyingi yillarda yaratilgan darsliklar, ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. “O‘zbek tili grammatikasi”ni yaratishda bo‘lim a’zolaridan A. Hojiyev, A. Ahmedov, M. Sodiqovalar ishtirok etdilar.

XX asrning 80-yillarida “Hozirgi o‘zbek tili bo‘limi” a’zolari ilmiy faoliyatida lug‘atchilik alohida o‘rin tutadi. Bu yillarda Moskvada nashr qilingan 2 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) o‘zbek tilshunosligidagi birinchi izohli lug‘at sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bo‘lim a’zosi A. Hojiyevushbu salmoqli tadqiqotning yuzaga kelishiga katta hissa qo‘shdi.

1985-yilda chop etilgan A. Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” tilshunoslik terminologiyasi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Mazkur lug‘atda tilshunoslik terminlarini izohlash barobarida ularni tartibga solish va meyorlashtirish masalalari ham hisobga olingan edi.

Bu yillarda bo‘lim a’zolari ishtirokida yaratilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»(1980), “O‘zbek tili leksikologiyasi”(1981) kabi akademik nashrlar nafaqat tilshunosligimiz nazariyasi, balki o‘zbek tili ta’limi sifatini takomillashtiruvchi tadqiqotlar sifatida muhim o‘rin tutadi. Xususan, “O‘zbek tili leksikologiyasi” monografiyasida o‘zbek tili semasiologiyasi muammolari o‘zining chuqr ilmiy talqiniga ega bo‘ldi. 80-yillarda o‘zbek adabiy tilining XX asrdagi taraqqiyoti tadqiq etilgan 3 jildli monografiyalarda “Hozirgi o‘zbek tili” bo‘limi a’zolari A.Hojiyev, E. Begmatovlarning alohida hissasi bor.

Bo‘lim a’zosi E. Begmatov bu davrda o‘zbek tili leksikasining lug‘aviy qatlamlarini nazariy jihatdan chuqr tahlil qilishga kirishdi. Bu ulkan mehnatning samarasi sifatida “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” (1985) nomli fundamental tadqiqot yuzaga keldi.

Bu davrda “Nutq madaniyati” bo‘limi asosiy e’tiborini nutq madaniyatining nazariy muammolarini o‘rganishga qaratdi. Natijada “Adabiy norma va nutq

madaniyati”(1983), “O‘zbek nutq madaniyati ocherklari” (1988) kabi jamoaviy tadqiqotlar nashrdan chiqarildi.

“Hozirgi o‘zbek tili ” bo‘limi a’zolari o‘tgan asrning 90-yillarida jamiyatimizning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lgan “Davlat tili haqida”gi Qonun ijrosini bajarishga katta hissa qo‘shdilar. Akademik A.Hojiyevning “O‘zbek tilining imlo lugati”(1995, hammualliflikda), E.Begmatovning “Adabiy norma nazariyasi” (A.Mamatov bilan hamkorlikda,1997, 1999 va 2000-yillar) uch qismdan iborat tadqiqoti mana shu yillarda yaratildi. Akademik A. Hojiyev o‘rtaliklarining 5-6-7-8- sinflari uchun yaratilgan “Ona tili” darsliklarining asosiy mualliflaridan biri sifatida o‘zbek tili ta’limi takomiliga katta hissa qo‘shti.

1990-yilda A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo‘jayevalar hammuallifligida nashr etilgan “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” nomli kitob nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki turkiy tilshunoslikda shu turdagini birinchi asar hisoblanadi. Mazkur asar tilshunosligimizda sintaktik birliklarning mazmuniy jihatlari tahlil qilingan bir qancha ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishida nazariy poydevor vazifasini o‘tadi.

Istiqlol davrining dastlabki yillarda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy jabhalarda olib borilgan muhim islohotlar o‘zbek tilining lug‘aviy tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi: ko‘plab so‘zlarning ma’nosi kengaydi, tilimizda yangi so‘z va terminlar paydo bo‘ldi, eski tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar nofaol qatlamga o‘ta boshladidi. Bu kabi o‘zgarishlar o‘zbek tilining yangi izohli lug‘atini tuzish ehtiyojini keltirib chiqardi. Bunday muhim vazifa Respublika hukumatining maxsus qarori bilan O‘zRFA Til va adabiyot instituti tilshunos olimlari zimmasiga yuklatildi. 2006-2008-yillarda 5 jilddan iborat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashrdan chiqdi. Ushbu lug‘atni tuzishda bo‘lim a’zolari – A.Hojiyev, E.Begmatov, D.Xudayberganova ham qatnashib, ulkan mehnatni amalga oshirdilar. Lug‘aviy birliklarning 80 mingdan ortiq ma’nosi izohlab berilgan ushbu lug‘atning yaratilishiga ayniqsa A.Hojiyev katta hissa qo‘shti. Ushbu lug‘atda 18 ta harf uchun yozilgan lug‘at maqolalari bevosita uning qalamiga mansub.

5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” respublikamizning ma’naviy-ma’rifiy hayotida ijobjiy hodisalardan biri sifatida jamoatchilik tomonidan e’tirof etildi. Ushbu lug‘at hozirgi vaqtda ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

XX asrning ikkinchi o‘n yilligida A.Hojiyev “O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari” monografiyasini (2010) chop ettirdi. Bo‘lim a’zosi E.Begmatov bu davrda o‘zbek antroponimikasi bo‘yicha tadqiqotlarni izchil davom ettirdi. Uning o‘zbek antroponimikasi

tizimining lisoniy xususiyatlari bo'yicha ko'p yillik kuzatishlari "O'zbek ismlari ma'nosi"(2010), "O'zbek tili antroponimikasi"(2013), "Ismlarning sirli olami"(2014) deb nomlangan yirik tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, 3-marta nashr etilgan "O'zbek ismlari ma'nosi" lug'at-tadqiqoti o'zbek ismshunosligiga qo'shilgan katta hissadir. Unda 14 mingdan ortiq o'zbek ismlaring motivativ ma'nolari izohlangan.E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" nomli monografiyasi onomastik birliklar bo'yicha turkiyshunoslikda yaratilgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu monografiyada olim o'zbek ismlarining lug'aviy, ma'noviy xususiyatlarini chuqr ilmiy qarashlar asosida yoritib berdi.

2013-yilda E.Begmatov va A.Madvaliyev 85000 dan ortiq so'z va so'z shakllarini o'z ichiga olgan "O'zbek tilining imlo lug'ati" ni kirill va lotin yozuvlarida alohida, ikkita kitob holida nashr ettirdilar. Mazkur lug'at ilmiy jamoatchilik tomonidan o'zbek leksikografiyasining jiddiy yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

2013-yilda N.Mahmudov va D.Xudayberganova hamkorligida tuzilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" nashrdan chiqdi. Mazkur lug'atda 500dan ortiq o'zbek tili turg'un o'xshatishlarining ma'nosi yangi leksikografik tamoyillar asosida izohlab berildi.

Hozirgi vaqtدا bo'lim a'zolari zamonaviy tilshunoslik tamoyillari asosidagi, fanlar integratsiyasini namoyon etuvchi tadqiqotlar yaratishga katta e'tibor qaratmoqdalar. D.Xudayberganovaning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasi (2013) o'zida ana shunday tamoyillarni mujassam etgan. Mazkur monografiyada o'zbek tili birliklarini til sohiblarining milliy mentaliteti bilan aloqadorlikda tadqiq etish g'oyasi ilgari surilgan. Muallifning "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" (2014) o'zbek tilshunosligida endigma shakllanib kelayotgan lingvokulturologiya sohasining rivojidagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi. 2015-yilda f.f.n. D.Xudayberganova "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bo'limning kichik ilmiy xodimi D.Andaniyazova "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Bo'lim xodimlari quyidagi fundamental loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etganlar:

"O'zbek tilining ko'pjildli izohli lug'ati" (2003-2007)

“O‘zbek tili o‘xshatishlarning izohli lug‘atini tuzish” (2011-2012)

“O‘zbek tili leksikasi va terminologiyasining rivojlanish tamoyillari” (2007-2011)

“Qo‘shma so‘zlar imlosi va lug‘ati” (2006-2008)

“O‘zbekiston topominlarining imlo lug‘ati”(2009-2011)

Hozirgi vaqtida bo‘lim a’zolari 2 ta fundamental ilmiy loyiha asosida faoliyat olib bormoqdalar:

“O‘zbek tili leksikasi va terminologiyasining Mustaqillik davri taraqqiyoti” (2012-2016)

Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi” kitobini nashrga tayyorlash va chop etish (2015-2016-yillar)